



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI



VOL.3 № 3

2026

ALISHER NAVOIYNING “MAHBUB UL-QULUB” ASARIDAGI FRAZEMALARNING LEKSIK-SEMANTIK XUSUSIYATLARI

Mirzayeva Kamola Ne'matillo qizi
Qarshi shahri 23-o'rta maktab, o'qituvchi

Annotatsiya

Ushbu maqolada Alisher Navoiy qalamiga mansub “Mahbub ul-qulub” asarida qo'llangan frazemalarning leksik-semantik xususiyatlari tahlil qilinadi. Asardagi frazeologik birliklar badiiy nutqning ta'sirchanligini oshirish, muallifning axloqiy-falsafiy qarashlarini ifodalash hamda ijtimoiy munosabatlarni obrazli yoritishda muhim vosita bo'lib xizmat qilgani aniqlanadi. Tadqiqot jarayonida frazemalar tarkibidagi ayrim leksik birliklarning tarixiy-semantik o'zgarishlari, ularning zamonaviy o'zbek tilidagi muqobillari bilan qiyosiy tahlili amalga oshiriladi. Tahlil natijalari “Mahbub ul-qulub” asarida frazemalarning faqat badiiy bezak vazifasini emas, balki didaktik va tarbiyaviy mazmunni chuqurlashtiruvchi semantik vosita sifatida ham muhim o'rin tutishini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: Frazeologiya, frazema, leksika, semantika, ibora, antonim, variant, madaniyat

ЛЕКСИКО-СЕМАНТИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ФРАЗЕОЛОГИЗМОВ В ПРОИЗВЕДЕНИИ АЛИШЕРА НАВОИ «МАХБУБ УЛ-КУЛУБ»

Мирзаева Камола Нейматилло кизи
Средняя школа №23 города Карши, преподаватель

Аннотация

В данной статье анализируются лексико-семантические особенности фразеологизмов, использованных в произведении Алишера Навои «Махбуб ул-кулуб». Установлено, что фразеологические единицы в произведении служат важным средством повышения выразительности художественной речи, выражения нравственно-философских взглядов автора, а также образного отражения социальных отношений. В ходе исследования проводится сравнительный анализ отдельных лексических компонентов фразеологизмов, их историко-семантических изменений и соответствий в современном узбекском языке. Результаты анализа показывают, что фразеологизмы в произведении «Махбуб ул-кулуб» выполняют не только декоративную художественную функцию, но и играют важную роль как семантическое средство, углубляющее дидактическое и воспитательное содержание произведения.

Ключевые слова: Фразеология, фразема, лексика, семантика, фразеологическая единица, антоним, вариант, культура.

LEXICAL-SEMANTIC FEATURES OF PHRASEOLOGICAL UNITS IN ALISHER NAVOI'S WORK “MAHBUB UL-QULUB”

Mirzayeva Kamola Ne'matillo qizi
Secondary School No. 23 of Karshi City, Teacher

Abstract

This article analyzes the lexical and semantic features of phraseological units used in Alisher Navoi's work “Mahbub ul-Qulub.” The study reveals that phraseological units serve as an

important means of enhancing the expressiveness of literary discourse, conveying the author's moral and philosophical views, and vividly reflecting social relations. The research includes a comparative analysis of certain lexical components of phraseological units, their historical-semantic transformations, and their equivalents in modern Uzbek. The findings demonstrate that phraseological units in "Mahbub ul-Qulub" function not only as stylistic embellishments but also as significant semantic tools that deepen the didactic and educational content of the work.

Keywords: Phraseology, phraseme, lexis, semantics, idiomatic expression, antonym, variant, culture.

Frazema "o'z qismlarining alohida ma'nosidan farq qiluvchi bir butun holda ishlatiladigan tayyor lug'aviy birlik" bo'lib, gapda bir so'z vazifasini bajaradi. Frazemalar nutqqa rang-baranglik bag'ishlaydi va sinonim, antonim va omonim munosabatlarga kirisha oladi. Ularni frazeologiyani ajralmas qismi deb qarash mumkin. Chunki frazeologiya umumiy tizim bo'lsa, frazema ana shu tizimni tashkil etuvchi asosiy birlikdir. Frazeologiya frazemalarning tuzilishi, ma'nosi, kelib chiqishi va nutqda qo'llanish xususiyatlarini o'rganish orqali tilning obrazlilik va ta'sirchanlik jihatlarini ochib beradi. Frazemalar tuzilishiga ko'ra so'z birikmasiga yoki gapga teng bo'lib, semantik jihatdan bir butun, umumlashgan ma'no anglatadi, nutqqa tayyor holda kiritiladi.

METODLAR VA O'RGANILISH DARAJASI

Frazeologiya nazariyasining ilk tadqiqotchisi shvetsar-fransuz tilshunosi Sharl Ballidir. Olim o'zining ikki yirik asari ("Stilistika ocherki" (1905), "Fransuz stilistikasi" (1909))ga frazeologizmlar tadqiq etilgan maxsus boblar kiritgan. U o'zining asarlarida frazeologik birliklarning ichki va tashqi belgilarini o'zaro farqlagan edi. U o'z tadqiqotida tildagi shunday birliklarning struktural xususiyatlari tashqi belgilari, semantik tabiati esa uning ichki belgilari hisoblanishini ko'rsatib o'tadi [1, 665].

F. de Sossyur esa "Umumiy tilshunoslik kursi" asarida sintagma, uning belgilari haqida so'z yuritir ekan, "Tilda shunday tayyor birikmalar borki, ularning uzual xarakteri ma'nosi va sintaktik xususiyatidan kelib chiqadi. Ularni tayyorgarliksiz qo'llash mumkin emas, chunki bunday birikmalar tayyor holda, an'anaga ko'ra qo'llaniladi" [2,157], – degan edi.

Keyinchalik dunyo tilshunosligida tilshunoslar tomonidan frazemalarga oid ko'plab izlanishlar olib borildi. Jumladan, bular sirasiga A.G.Nazaryan, R.Saidov, R.Shanayev, I.Y.Lepeshev, Y.A.Nekrasova, M.A.Bakina, A.G.Lomov, O.N.Fomina, L.R.Safina, Y.V.Arhangelskayalarning frazeologizmlar xususiyatlari, badiiy matndagi uslubiy-semantik funksiyasi o'rganilgan tadqiqotlarini kiritish mumkin. A.Zalyaleyeva, L.Miftaxutdinova, Go Sini kabi tadqiqotchilar esa frazemalarni turli tillar doirasida qiyosiy o'rganib, o'ziga xos jihatlariga urg'u berishgan.

O'zbek tilshunosligida ham frazemaga oid ilmiy izlanishlar olib borilgan. Jumladan, o'zbek tilshunosligidagi Y.Pinxasov, Sh.Rahmatullayev, H.Kahhorova, Z.Choriyeva, Sh.Usmanova, Sh.Almamatova, G.Adashulloyeva, Sh.G'aniyeva kabi tilshunoslarning ishlarida frazemalar atroflicha tadqiq etilgan.

Tadqiqotchi olim A.E.Mamatov ta'kidlaganidek, "Frazeologiyani "keng" va "tor" ma'noda tushunish noto'g'ri, uni bitta ma'noda tushunish kerak. Ular qanday til birliklari deb tasnif qilinishidan qat'i nazar, aforizmmi, maqol yoki matalmi, turg'un so'zlashuv formulalarimi, "qanotli so'zlar"mi, xullas, agar ular frazeologizmning biz bergan ta'rifiga mos tushsa, undagi talablarni bajara olsa, ya'ni tuzilishi jihatidan so'z birikmasi yoki gapga teng bo'lgan, obrazli, umumlashgan ma'no anglatadigan, leksik elementlari qisman yoki to'liq ko'chma ma'noga ega bo'lgan, lug'atlarda qayd etilgan har qanday turg'un birliklar frazeologik birliklar tarkibiga kiritilishi shart" [3,212].

TADQIQOT NATIJALARI

Buyuk allomalarimizning asarlari bilan tanish orqali tarixiy asarlarda ham frazemalar alohida ahamiyat kasb etganini anglash mumkin. Ularning bir qanchasi hozirgi paytda ham leksik va semantik jihatdan deyarli o'zgarishsiz qo'llansa, ba'zilar esa leksik va semantik jihatdan muayyan darajada o'zgargan holda qo'llanib kelyapti. Jumladan, buyuk alloma Alisher Navoiyning ijodiga mansub asarlarda frazemalar muhim o'rin tutadi. Bir qancha tilshunoslar Navoiyning turli asarlaridagi frazemalarni o'rgangan. Xususan, E.Umarov "Xazoyin ul-maoniy" asaridagi, B.Yo'ldoshev "Layli va Majnun" dostonidagi frazemalar usida izlanish olib borgan.

Allomaning butun umri davomidagi kuzatishlari, xulosalari asosida yaratilgan "Mahbub ul-qulub" asarlari lingvomadaniy birliklar, jumladan frazemalarga boyligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Ularni chuqur tahlil qilish o'zbek tilining o'ziga xos jozibasini namoyon etish nuqtayi nazaridan g'oyat muhim sanaladi.

Alisher Navoiyning "Mahbub ul-qulub" asaridagi frazemalar mazmunan rang-barang bo'lib, ularning katta qismi hozirgi kungacha qisman o'zgargan holda faol qo'llanib keladi, Asarda qo'llanilgan frazemalarni hozirgi o'zbek adabiy tilida qo'llanish holatiga ko'ra ikki guruhga ajratib tahlil qilishimiz mumkin:

Ayni shaklda qo'llanadigan frazemalar. Bu turga kiruvchi frazemalarning asosiy qismi bizgacha shaklan o'zgarishsiz yetib kelgan, faqat ayrimlari semantik yoki morfologik jihatdan qisman o'zgarishga uchragan. G'am yemoq frazemasini ayni shu guruhga kiritish mumkin. Bu asarda g'am yemoq iborasining bir necha o'rinda qo'llanilganiga guvoh bo'lish mumkin.:

1. Tengri razzoqlig'in bilgan ro'zi uchun g'am yemagay. (Tangrining Razzoqligini (rizq beruvchi ekanini) bilgan rizq uchun g'am yemagay).

2. Shohg'a dunyoda chin so'z deguvchi va aning oxirati g'amin yeguvchi. (Dunyoda shohga faqat rost so'z deguvchi va uning oxiragini g'amini yeguvchidir). Keltirilgan har ikki gapda ham bu iborasi tashvishda bo'lmoq ma'nosida qo'llanilgan.

Bu iborani hozirgi o'zbek adabiy tili izohli lug'atida ham g'am-hasratda bo'lmoq, tashvishda bo'lmoq ma'nolarida keltirilganini ko'rish mumkin. Bu ibora hozirgi xalq tilida va badiiy asarlarda ham leksik va semantik jihatdan o'zgarishsiz qo'llanib kelyapti. Xususan, mazkur frazemani yozuvchi H.Nazirning "Ko'k orol chiroqlari" asarida uchratish mumkin. Ya'ni asarda qo'llanilgan g'amini yemoq frazemasini tashvishlanmoq ma'nosida qo'llanilgan: ".....kampir sho'rlik bizning g'amimizni yeb, daladagi katta qozondan tog'orada ovqat tashiydigan bo'ldi. [4, 506]

Asarda qo'llanilib, hozirgi o'zbek adabiy tilida ham o'zgarishsiz qo'llanilib kelayotgan frazemalardan yana bir nechtasini sanab o'tish mumkin. Ular Navoiy asarlarida ham zamonaviy asarlarda ham leksik va semantik o'zgarishga uchramagan, lekin eski o'zbek tilida qo'llangan grammatik shakllar hozirgi o'zbek adabiy tilidagi varianti bilan almashgan holda ishlatilib kelinmoqda. Bular sirasiga "Tilin tiymaq", "Boy bermaq", "Ko'nguldin uzmaq" iboralarini misol sifatida keltirish mumkin.

Shoh rozin asramoqda tilin tiymag'anning boshi boribdur va g'ayrat va siyosat tig'i aning nihodidin zamor chiqoribdur. Bu yerda tilin tiymaq iborasi "gap aytishdan o'zini tutmoq" ma'nosida qo'llangan, ya'ni "Shoh sirini asray olmaganning boshi ketadi".

O'zbek tilining izohli lug'atida ham tilini tiymoq frazemasini keltirilgan bo'lib, "gap aytishdan o'zini tutmoq" ma'nosida qo'llangan. Bu frazema badiiy asarlarda ham ko'p uchraydi. Xususan, P.Qodirovning "Yulduzli tunlar" romanida ham ayni ma'noda ishlatilgan: "Darvesh gov yana bu yerda ham tilini tiymay, chatoq qildi. Barcha beklarni yomonlab, qarg'ab, olovga moy sepdi". [5, 135]

Shunday frazemalardan yana biri ko'nguldan uzmaq birligidir. Bu frazema ham hozirgi tilimizda saqlanib qolgan iboralardan biridir. "Mahbub ul-qulub"da mazkur frazema ko'nguldan uzmaq shaklida qo'llanib, "voz kechmoq" ma'nosida qo'llanilgan: Va molu joh xayoli rishtasin ko'nguldin uzmaqdur va nangu nomus butlarin ushaturg'a o'zin tuzmakdur va qabul umidig'a

riyozat tariqin tutmakdur. Ya'ni "Zuhd boylik va mansab xayolidan kechish va or-nomus butlarini sindirishga o'zini chog'lamog'i qabul umidida riyozat yo'liga kirmog'idir".

Navoiy ijodidagi ko'nguldin uzmaq frazemasini hozirgi o'zbek adabiy tilida ko'ngil uzmoq shakliga o'zgargan, ya'ni qo'shimchada o'zgarish sodir bo'lgan. O'zbek tilining izohli lug'atida bu frazemaning ma'nosi "bahridan o'tmoq, kechmoq, ajralmoq, tashlab ketmoq" tarzida izohlangan. Sadridin Ayniyning "Qullar" romanida ham bu frazemaga duch kelish mumkin: " – Haligacha sen Fotimadan ko'ngil uzmagani ekansan-da? – dedi nozli bir ohang bilan Qutbiya. – Men, – dedi Hasan, – unga ko'ngil bog'lagan emasmanki, undan ko'ngil uzish kerak bo'lib qolsin" [6,408]. Asardan olingan parchada ko'ngil uzmoq frazemasini "kechmoq" ma'nosida qo'llanilgan. Bu gapda ziddan ham paydo bo'lgan, ya'ni Ko'ngil uzmoq frazemasini gapda keltirilgan ko'ngil bo'g'lamoq frazemasiga antonimdir.

Boy bermog' frazemasini "Mahbub ul-qulub"da "yo'qotmoq, yutqizmoq" ma'nosida qo'llanilgan. Bu frazema ham davrlar osha ma'no jihatdan o'zgarishga uchramagan. Asarning birinchi bob yigirma ikkinchi fasli ("Qo'shiqchi va cholg'uvchilar zikri")da bu frazema qo'llanganini kuzatish mumkin: Baso ahlullohki, arg'anun unidin dayrg'a kirdi va din va islom naqd mug'bachalarg'a boy ber. Ya'ni "Ko'p ahlullohlar arg'anun ovozi eshitib, butxonaga kirdilar va dinu islom boyligini mug'bachalarga (may tashuvchi bolalarga) yutqizdilar.

Bu frazema "O'zbek tilining frazeologik lug'ati" hamda "O'zbek tilining izohli lug'ati"da ham boy bermog' shaklida qo'llanilgan, ya'ni o'tmishda Navoiy tilida mavjud bo'lgan mazkur frazema hozirgi kungacha o'zgarishsiz saqlanib qolganiga guvoh bo'lish mumkin. Bu ikkala lug'atda uning ma'nosi "yutqizmoq, yo'qotmoq, sezdirib qo'yimoq" tarzida izohlangan. Shuningdek, Said Ahmadning "Hukm" qissasida bu frazmadan ayni ma'noda foydalanilgan: "Tilmoch qimorga o'zini urdi. Omadi ketib, hovlijoyni boy berib, qaynatasining uyiga ko'chib keldi" [7, 569].

Bu frazema orqali o'zbek tilining ildizi necha asrlarga borib taqalishini va chuqurga tarixga ega ekanligini ko'rish mumkin. Bu kabi frazemalar tilning naqadar betakrorligini ko'rsatib beradi. Frazema bu tilning jozibasi deyish mumkin, chunki o'zbek tilidagi frazemalarni boshqa tilga so'zma-so'z tarjima qilib bo'lmaydi. Tarjima qilgan holda ham frazema bergan jozibani unga baxsh etolmaydi.

Komponenti o'zgargan frazemalar. A.Mamatov bunday frazemalarni "leksik qayta shakllangan frazemalar" deb nomlaydi va bu o'zgarishlarning nolisoniy va lisoniy omillarini sanab o'tadi [8, 42]. Tildagi an'analarning o'zgarishi, frazema asosida yotuvchi obrazni yanada jonlantirish yoki rivojlantirish ta'sirida yuz beradigan leksik qayta shakllanish lisoniy omil sanaladi va asarda qo'llanilgan ayrim frazemalar tarkibidagi leksik qayta shakllanish obrazlilikni kuchaytirishga xizmat qilgan.

"Mahbub ul-qulub"dagi bir qancha frazemalar bugungi kungacha grammatik yoki leksik jihatdan biroz o'zgargan holda yetib kelgan. Jumladan, yuzga chopmoq, ko'z solmoq frazemalarida shunday xususiyat ko'zga tashlanadi.

Yuzga chopmoq frazemasini asarda "yuziga tik gapirmoq" ma'nosida qo'llanilgan. Mazkur frazmadan hozirgi o'zbek tilida betga chopmoq tarzida foydalaniladi. Quyidagi misollar orqali mazkur fikrni asoslash mumkin.

1. Ko'ngullari to'bichoq sekreturdin orom topmoq va so'zlari bosh yalang yuzga chopmoq. Ya'ni "Fosiq va badfe'l bahodirlik lofini urganlarni ko'ngillari ot choptirib, orom olish va yuz xotir qilmay tik gapirish" ("Mahbub ul-qulub").

2. "Dilovarxo'ja "ha kechagi gaplaringiz-chi", demoqchi bo'ldi-yu, betga chopishni hozir o'ziga ep ko'rmadi". (Shuhrat "Oltin zanglamas").

Navoiy asarida ham "Oltin zanglamas" asarida ham ushbu ikki frazema bir xil ma'noda qo'llangan. Ko'rinib turibdiki, Navoiy ijodida mazkur frazema hozirgi tildagidan faqat usluban biroz farq qiladi, ya'ni "Mahbub ul-qulub"da badiiy uslubda, hozirgi o'zbek tilida esa so'zlashuv

uslubiga yaqin tarzda ifodalangan.

Ko'z solmoq frazemasini "Mahbub ul-qulub"da "qo'lga kiritishni maqsad qilish, da'vo qilish" ma'nosida qo'llangan" Kunduz kezmaklari ibrom bila eldin nima olmok uchun, kecha kelib o'g'urlarg'a el jihotig'a ko'z solmoq uchun. Hozirgi o'zbek tilida mazkur frazema ko'z tikmoq, ayrim hollarda ko'z olaytirmoq frazemalari orqali beriladi. Sadriddin Ayniyning "Sudxo'ring o'limi" asarida ko'z tikmoq frazemasini Navoiy asarida qo'llanilgan ko'z solmoq frazemasini ifodalagan ma'noda kelgan: "...bo'lmasa yeringizga ko'z tikkan o'sha qishloq sudxo'rlari oldiga boravering!" [9, 257].

Hozirgi kunda ko'z solmoq frazemasini shaklan eskirgan. Hozirgi o'zbek adabiy tilida ham ba'zi o'rinlarda ko'z solmoq frazemasini "qaramoq" ma'nosida qo'llangan. Lekin bu ma'noda ko'proq nazar solmoq frazemasidan foydalaniladi. Shukur Xolmirzayevning "Saylanma"sida ko'z solmoq frazemasini "qaramoq" ma'nosida qo'llangan: "Amirqul polvon choponi etaklarini qoqib tashlab, yo'lkaga yo'nalar ekan beixtiyor atroflarga o'tkir-o'tkir ko'z solar, nimalarnidir eslamochi bo'lardi"[10, 210].

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, frazemalar qaysi davrga oid bo'lmasin xalqning hayotini, turmush tarzini, urf-odatlarini, milliy madaniyatini, o'sha davrga oid dunyo qarashini, og'zaki ruhiy kechinmalarini va orzu-istaklarini ifodalaydi. Boshqacha aytilganda frazeologizmlar xalq tomonidan yaratilgan til birligidir. Alisher Navoiyning "Mahbub ul-qulub" asarida qo'llanilgan frazemalar ham bizda o'sha davr hayot tarziga oid tasavvur uyg'otadi, ya'ni Navoiy xalq tilida ishlatilib kelingan frazemalardan o'rinli foydalangan. Asarning mazmun mohiyati bayon qilinishida asarning leksik xususiyatlari bilan bir qatorda frazemalar (turg'un birikmalar)ning o'rni muhimligini ko'rish mumkin. Navoiyning bu asarida qo'llangan frazemalarning ba'zilari faqatgina o'sha davrda qo'llanilgan bo'lsa, ba'zilari davrlar o'sha hozirgi adabiy tilimizda ham o'zgarishsiz qo'llanilib kelinmoqda. Aniq misollar asosida olingan tahlillar shuni ko'rsatadiki frazemalar shakliy butunlik, mazmuniy yaxlitlik, barqarorlik, lisoniy ongda tayyor holda mavjudlik, semantik transpozitivlik, informativ tugallik kabi belgilarga ega bo'lgan til birliklaridir.

Yozma manbalardagi frazemalarni semantik, tarixiy-etimologik jihatdan tahlil etish borasida amalga oshirilgan ishlar kam. XIV asrning II yarmiga oid turkiy yozma manbalar matnidagi bir qator frazemalar keyingi davr manbalarida hamda hozirgi o'zbek tilida ishlatiladi. Lingvostatistik tahlil natijalari frazemalarning katta qismi (63 foizi) aynan yoki leksik o'zgarish bilan hozirgi o'zbek adabiy tilida qo'llanishini ko'rsatdi [12,22]. Inson faoliyati bilan bog'liq harakat-holat, belgi-xususiyat, fe'l-atvor ifodalovchi bir qator frazemalar hozirgi o'zbek tilida ayni shaklda va mazmunda qo'llanadi. Ma'lum qismi komponent jihatidan o'zgarishga uchragan. Bu o'zgarishlar komponentning tushib qolishi, yangi komponentning qo'llanishi va mavjud komponentning almashuvi bilan izohlanadi. Tahlil natijasida frazemalarning tilda leksemalar singari saqlanishi, semantik va tuzilish jihatdan ham xuddi leksemalar kabi muntazam o'zgarishga uchrab borishi kuzatildi. Frazemalar struktur-semantik jihatdan doimiy ravishda lingvistik jarayonda bo'lgan, shakl va ma'no jihatidan o'zgarishlarga uchraydigan lisoniy mental, kognitiv, lingvomadaniy butunlikdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Ubaydullayeva M. Frazeologik birliklarning shakllanishi va taraqqiyoti bosqichlari. – N.: NamDU to'plami, 2024. 665-b.
2. Соссюр Ф. де. Курс общей лингвистике. – Труды по общему языкознанию. – М., Прогресс, 1977. – С. 157
3. Маматов А.Э. Хозирги ўзбек адабий тилида лексик ва фразеологик норма муаммолари. – Тошкент, 1991, 212-б.

4. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. Olti jildli. oltinchi jild. Toshkent – 2023, 506-b
5. P.Qodirov. “Yulduzli tunlar”. – Toshkent: “Navro‘z” – 2019, 135-b.
6. S. Ayniy. “Qullar” “Badiiy adabiyot nashriyoti” Toshkent –1964, 408-b.
7. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. Olti jildli. Birinchi jild. Toshkent – 2023, 569-b.
8. Маматов А. Ўзбек тили фразеологизмларининг шаклланиши масалалари. Филол. фан. док...дисс. автореф. – Т., 2000. – Б. 42.
9. O‘zbek tili freozologik lug‘ati. – Toshkent: “G‘afur G‘ulom” – 2022, 257-b.
10. Sh Xolmirzayev “Saylanma”. 1-jild. – Toshkent: “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati, 2003. – B. 210.
12. I. O‘rozova. XIV asrning II yarmiga oid turkiy yozma manbalardagi frazemalar tadqiqi Filol.fan. bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ... diss avtorefer – Toshkent. 2022.